



# JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI

**Talabalar turar joyida yashovchi ayrim toifadagi  
talabalarning yashash xarajatlarini qoplash tartibi to'g'risida**

**2026**

**Nashr qildi:  
Transformatsiya va  
strategik rivojlanish ofisi**

**Mas'ul:  
Yoshlar ishlari ofisi**

## **Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida**

### **Talabalar turar joyida yashovchi ayrim toifadagi talabalarning yashash xarajatlarini qoplash tartibi to'g'risida**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabalar farovonligini ta'minlash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda oliy ta'limdan teng foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida talabalar turar joylarida yashovchi ayrim toifadagi talabalarning yashash xarajatlarini qoplash bo'yicha davlat tomonidan belgilangan mexanizmlarni amaliyotga joriy etib kelmoqda.

Mazkur qo'llab-quvvatlash tizimi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi 32-son qarori bilan tasdiqlangan "[Ayrim toifadagi talabalarning davlat oliy ta'lim tashkilotlari talabalar turar joylaridagi yashash xarajatlarini qoplab berish tartibi to'g'risida](#)"gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomga muvofiq, "[Ijtimoiy himoya yagona reyestri](#)"ga kiritilgan oilalarning kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan farzandlarining talabalar turar joyidagi yashash xarajatlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplab beriladi.

Natijada universitetda quyidagi mexanizmlar amalga oshiriladi:

1. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining [2026-yil 28-yanvardagi 32-son qarori](#) ijrosini ta'minlash maqsadida talabalar turar joylarida yashayotgan ayrim toifadagi talabalarga moliyaviy yordam ko'rsatiladi.

2. Universitetda talabalar turar joyidagi yashash xarajatlarini qoplash bo'yicha arizalarni qabul qilish, ko'rib chiqish va tasdiqlash jarayoni amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda universitetning ichki tartiblari asosida amalga oshiriladi. Arizalar va tasdiqlovchi hujjatlar [billing.edu.uz](http://billing.edu.uz) tizimi orqali ko'rib chiqiladi.

3. Arizalarni ko'rib chiqish jarayonida Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, Fakultet dekanlari, kurs kordinatorlari, Yoshlar ishlari ofisi, Talabalarni qabul qilish va rasmiylashtirish ofisi vakillari, Moliya ofisi mutaxassislaridan iborat universitet komissiyasi a'zolari ishtirok etadi. Komissiya arizalarni ko'rib chiqish, baholash va yakuniy qaror qabul qilish uchun vakolatli organ sifatida faoliyat yuritadi.

### **Talabalar uchun qisqacha yo'riqnoma**

#### **Kimlar murojaat qilishi mumkin?**

- Talabalar turar joyida yashayotgan, kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan, "[Ijtimoiy himoya yagona reyestri](#)"ga kiritilgan oilalar farzandlari bo'lgan talabalar.

#### **Qayerga murojaat qilish kerak?**

- Arizalar va zarur hujjatlar [kontrakt.edu.uz](http://kontrakt.edu.uz) va [ijara.soliq.uz](http://ijara.soliq.uz) axborot tizimi orqali elektron shaklda topshiriladi.

### **Arizalarni ko‘rib chiqish bosqichlari:**

1. **Ariza topshirish.** Talaba [kontrakt.edu.uz](http://kontrakt.edu.uz) va [ijara.soliq.uz](http://ijara.soliq.uz) axborot tizimi orqali ariza, ijara shartnomasi va boshqa zarur hujjatlarni belgilangan muddatda topshirishadi.

2. **Hujjatlarni tekshirish.** Yoshlar ishlari ofisi mas’uli hujjatlarning to‘liqligi, formatiga muvofiqligi va haqqoniyligini tekshiradi va talabga javob beruvchi hujjatlarni [billing.edu.uz](http://billing.edu.uz) tizimiga yuklaydi.

3. **Fakultet bosqichi.** Fakultet mas’ullari arizalarni ro‘yxatga oladi, dastlabki tahlilni amalga oshiradi va hujjatlarni kurs koordinatorlariga yuboradi.

4. **Talabaning ijtimoiy holatini baholash.** Kurs koordinatorlari talabaning ijtimoiy holati, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilganligi hamda subsidiya olish huquqini tasdiqlovchi ma’lumotlarni o‘rganadi. Shu asosda yozma xulosa tayyorlanib, universitet komissiyasiga taqdim etiladi.

5. **Komissiya tekshiruvi.** Komissiya a’zolari arizalar va xulosalarni kompleks tarzda tahlil qiladi, zarur hollarda qo‘shimcha ma’lumot talab qiladi hamda subsidiya yoki kompensatsiya ajratish bo‘yicha qaror qabul qilishadi.

6. **Komissiya bayonnomasi.** Qabul qilingan qarorlar bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi va E-IMZO orqali tasdiqlanadi.

7. **Buyruq.** Rektor yoki vakolatli prorektor komissiya qarori asosida tegishli buyruqni tasdiqlaydi.

8. **Mablag‘larini o‘tkazish.** Moliya ofisi tasdiqlangan buyruq asosida subsidiya mablag‘larini belgilangan tartibda talabalarning bank kartalariga o‘tkazadi.

### **Monitoring va amalga oshirish**

Arizalarni ko‘rib chiqish jarayonining shaffofligi va qonuniyligini ta’minlash maqsadida taqdim etilgan hujjatlar muntazam ravishda tekshirib boriladi. Talabaning subsidiya olish huquqini tasdiqlovchi ma’lumotlar hamda ijtimoiy holatiga oid ma’lumotlarning haqqoniyliги nazorat qilinadi. Soxta yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar aniqlangan hollarda talaba belgilangan tartibda xabardor qilinadi va subsidiya ajratish to‘xtatiladi. Talabaning ijtimoiy holati yoki hujjatlarida o‘zgarish yuz bergan taqdirda yangilangan ma’lumotlar va tegishli hujjatlar qayta taqdim etilishi lozim. Davlat budjeti mablag‘laridan maqsadli foydalanilishi maqsadida muntazam monitoring olib boriladi hamda zarur hollarda asossiz yoki ortiqcha to‘langan mablag‘larni qaytarish bo‘yicha amaldagi tartibda tegishli choralar ko‘riladi.

### **Statistik ma’lumotlar**

2026-yil mart oyida ayrim toifadagi talabalarning talabalar turar joylaridagi yashash xarajatlarini Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplash dasturi doirasida jami **38**

ta ariza qabul qilingan. Universitet komissiyasi tomonidan arizalar [O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi 32-son qarori](#) bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida ko‘rib chiqilgan. Infografika 1 da ko‘rsatilganidek, JIDUning 2026-yil 8-apreldagi №2673-1873-8315-son yig‘ilish bayonnomasi hamda uning ijrosini ta‘minlash maqsadida qabul qilingan JIDU rektorining 2026-yil 18-apreldagi №6082-1164-9252-son buyrug‘i asosida **38** nafar talabaga subsidiya ajratilgan.



Infografika 1. Talabalar turar joyi uchun subsidiyalar ajratilishi bo'yicha arizalar natijalari.

Mazkur natijalar universitetning talabalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning turar joy bilan bog‘liq moliyaviy qiyinchiliklarini bartaraf etish hamda oliy ta‘limda tenglikni ta‘minlashga hissa qo‘shadi.